

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

TA'LIM MƏRKƏZI VA ANALOGA KURSU

TA'LIM MƏRKƏZİ VƏ ANALOGA KURSU

TA'LIM MƏRKƏZİ

60530200 – Geografiya bakalavriat ta'lif yo'nalişining

MALAKA TALABI

Bozor o'qituvchi bilan tashrif bolayotgan davlat ta'lim standarti, Asosiy qoidalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligini va mafkomalarini tashrif etuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tanqo mukofotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Buyruqlaridagi fikrler, qonishevchiliklar, shuningdek, Prezidenti qo'shiq mi'lyor-yusibiy hujjati.

Bozor o'qituvchi bilan tashrif bolayotgan Malaka talmudi surʼati chep-efish

Toshkent — 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil «**25**» **06** dagi **918** - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1. Umumiy tavsifi	4	
1.1. Qo'llanish sohasi	4	
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4	
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4	
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4	
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4	
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4	
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5	
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5	
2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....	8	
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9	
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	10	
Bibliografik ma'lumotlar.....	11	
Kelishuv varag'i	12	

1. Umumiyoq tavsifi

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotning talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

Fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, umumiyoq o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiyoq o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat tashkilotlarida kompleks masalalar bilan bog'lik kasbiy sohalari;

umumiyoq o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim tashkilotini boshqarish;

umumiyoq o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim tashkilotlari, oliy ta'limda laborant, kabinet mudiri, tyutor sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

umumiyoq o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim davlat va nodavlat tashkilotlari;

maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralar;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari; davlat boshqaruv organlari;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari;

tabiiy resurslarni baholash, davlat kadastrlarini yuritish va ulardan foydalanish tashkilotlari;

qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar;

rekreatsiya va turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashkilotlar;

geoaxborot tizimlari va geofazoviy tahlil, kartografiya sohalari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot institutlari, korxona va tashkilotlar;

hududlarni kompleks tahlil qilish, rivojlantirish hamda tabiatdan foydalanish reja va loyihalarni ishlab chiqish tashkilotlari;

urli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

pedagogik (umumi o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida);

ilmiy-tadqiqot;

ma'naviy-ma'rifiy

tashkiliy-boshqaruv;

ishlab chiqarish.

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Umumi o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatida:

umumi o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivasiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish: ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasini va

usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilish va amalda qo'llay olish, mavjud muammolarni aniqlay olish va tahlil qilish;

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olish, ta'lim tashkilotining ustavi va ichki tartib qo'iadalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilarida kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: o'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlardan yaratish, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olish, o'quvchilar bilan individual ishlardan olib borish, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashtirishga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyati yuzasidan seminar va treninglar tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatida kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarining ota-onalari bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarining ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga, maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarining ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarining rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarini hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'naliishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingen ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida ta'lim yo'naliishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqotlar olib borish;

geografiya fanlariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

o'quvchilarida mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehrmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lish, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

Vatan tarixini bilish, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olish va ilmiy asoslay bilish, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

tegishli bakalavriat yo'naliishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lish;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

tabiiy geografik, atrof muhitni muhofaza qilish, geoekologik, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik jarayonlarga baho berish hamda jarayonlar prognozini ishlab chiqish va kasbiy faoliyatiga taalluqli tashkilot va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish;

GAT va geofazoviy tahlil, hududlarni kompleks tahlil qilish, rivojlantirish, tabiatdan foydalanishning reja va loyihalarni ishlab chiqish va unga aloqador kompleks masalalarni yechish;

pullik ta'lif xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ta'lifda yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar

davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, ilmiy madaniyatni shakllantirish;

ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana olish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallash, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay olish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'gom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariva va amaliyat uyg'unligini, uzviylik va uzlusizligini ta'minlash;

tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirgan bo'lish;

tabiatda va inson xo‘jalik faoliyatida bo‘layotgan hodisa va jarayonlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish, ularni kuzatish, tahlil qilish va kartaga olishda zamonaviy jihozlar va GAT texnologiyalari va dasturlardan foydalana olish;

tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallash hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana olish;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilish, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy
tayyorgarlikga ega bo'lish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim tashkilotlarida geografiya fanlari bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars mashg'ulotlarini o'tkazish;

umumi pedagogika nazariyasi, o'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari; ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar; ta'lim jarayonida motivatsiya; ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari; umumi va xususiy metodlar; umumi pedagogik texnologiyalar; ta'lim tizimini boshqarish; pedagogik mahorat; umumi psixologiya: umumi psixologiyaning sohalari. yosh va pedagogik psixologiya: ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi; ta'lim va aqliy taraqqiyot; tarbiya metodlari va formalari; bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari; pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot haqida bilish;

pedagogik va tashkiliy ishlarda ijodiy yondashishi, kasbga oid tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malaka amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Pedagogik amaliyot;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o’tiladigan semestr
1.00		Majbuliy fanlar	5160	172	
1.01	OMF1105	Oliy matematika*	150	5	1
1.02	O’YT1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi*	120	4	1
1.03	UPS11206	Umumiy psixologiya	180	6	1
1.04	O’RT1204	O’zbek (rus) tili*	120	4	2
1.05	MAM1205	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
1.06	FAL2304	Falsafa*	120	4	3
1.07	UPE23407	Umumiy pedagogika	210	7	3
1.08	DIN2404	Dinshunoslik*	120	4	4
1.09	UTT4704	Uzluksiz ta’limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	120	4	7
1.10	ITGT4704	Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika	120	4	7
1.11	IG1108	Iqlimshunoshlik va gidrologiya	240	8	1
1.12	TG1104	Tuproqlar geografiyasi	120	4	1
1.13	TG11210	Umumiy tabiiy geografiya	300	10	1
1.14	GG1206	Geofizika asoslari va geokimyo	180	6	2
1.15	II1206	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya	180	6	2
1.16	GA2306	Geomorfologiya va geologiyasi asoslari	180	6	3
1.17	O’G23416	O’zbekiston geografiyasi	480	16	3
1.18	TK23409	Topografiya, kartografiya va GAT	270	9	3
1.19	JG23345620	Jahon geografiyasi	600	20	3,4,5,6
1.20	BG2404	Biogeografiya	120	4	4
1.21	LN3504	Landshaftshunoslik	120	4	5
1.22	AG3508	Aholi geografiyasi va demografiya asoslari	240	8	5
1.23	JX3504	Jahon xo’jaligi geografiyasi	120	4	5
1.24	SG3606	Shaharlar geografiyasi va geourbanistika asoslari	180	6	6
1.25	GL3604	Geoekologiya va landshaft ekologiyasi	120	4	6
1.26	GM4710	Tabiiy fanlar va geografiya o’qitish metodikasi	300	10	7
2.00		Tanlov fanlar	960	32	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	960	32	5,6,7
Kvalifikatsiya		Geograf. Geografiya fani o’qituvchisi			
		Jami	6120	204	
	Malaka amaliyoti**		840	28	2,4,6,8
	BMI (yakuniy davlat attestatsiyasi)		240	8	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

* Oliy ta’lim tashkiloti Kengash qarori bilan fanning o’qitilish semestri fanga ajratilgan kreditlar miqdori nisbatini saqlagan holda o’zgartirilishi mumkin.

** Oliy ta’lim tashkiloti Kengashi qarori bilan malaka amaliyotiga ajratilgan umumi kredit miqdori saqlanib qolgan holda semestrlar va amaliyotni tashkil etish shakli belgilanadi.

Ta’lim yo’nalishlarining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malaka amaliyoti ta’lim jarayonining tegishli qismida uzlusiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malaka amaliyoti ma’lum bir semestrga to’liq hajmda qo’yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o’quv fanlar mashg’ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malaka amaliyoti to’liq 6-semestrga qo’yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironta o’quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr faqat “Malaka amaliyoti” qatorida ko’rsatiladi).

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Malaka talablari, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'naliishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jahbasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, ko'nikma, o'quv davri, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, loyihalash, ilmiy tadqiqot, geografiya, tabiiy geografiya, tabiiy geografik jarayonlar, iqlimshunoslik, gidrologiya, geomorfologiya, biogeografiya, tuproqlar geografiyasi, landshaftshunoslik, geografik qobiq, geotizimlar, tabiat komponentlari, gorizontal va vertikal aloqalar, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, hududiy ishlab chiqarish majmualari, qishloq xo'jaligi geografiyasi, sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, aholi geografiyasi, shaharlar geografiyasi, sotsial geografiya, siyosiy geografiya, hududiy va ijtimoiy mehnat taqsimoti; iqtisodiy geografik o'rinni, xo'jalik tarmoqlari, aholining hududiy joylashuvi, demografik jarayonlar, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, bakalavriatning o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, ta'lim jarayoni.

Qozog'iston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va ijarotchilik
Xalqaroqchiy va filial chiqqanligi
O'qituvchi, va doktor texnologiyalarini ta'lim bermagan
Tashkiliy-tadqiqotchi

Qozog'iston Respublikasi
Muhitotqacha va moliyal ro'isligi
Xalqaroqchiy va filial chiqqanligi
O'qituvchi, va doktor texnologiyalarini ta'lim bermagan
Tashkiliy-tadqiqotchi

Qozog'iston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va ijarotchilik
Xalqaroqchiy va filial chiqqanligi
O'qituvchi, va doktor texnologiyalarini ta'lim bermagan
Tashkiliy-tadqiqotchi

Qozog'iston Respublikasi
Muhitotqacha va moliyal ro'isligi
Xalqaroqchiy va filial chiqqanligi
O'qituvchi, va doktor texnologiyalarini ta'lim bermagan
Tashkiliy-tadqiqotchi


Qozog'iston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va ijarotchilik
Xalqaroqchiy va filial chiqqanligi
O'qituvchi, va doktor texnologiyalarini ta'lim bermagan
Tashkiliy-tadqiqotchi

Qozog'iston Respublikasi
Muhitotqacha va moliyal ro'isligi
Xalqaroqchiy va filial chiqqanligi
O'qituvchi, va doktor texnologiyalarini ta'lim bermagan
Tashkiliy-tadqiqotchi

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilarini

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I.Madjidov

2024 yil « 10 » 06



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Rektor  A.Kirgizbayev

2024 yil « 10 » 06

KELISHILGAN:


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi

Direktor  M.Boltaboyev

2024 yil « 10 » 06

M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi

Direktor  Sh. Xudaykulov

2024 yil « 10 » 06



Chirchiq davlat pedagogika universiteti




Rektor  G.Muhamedov

M.O.

Guliston davlat universiteti



Rektor  M.Xodjiev

2024 yil « 10 » 06

M.O.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalarini va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2024-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev, Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori prof. G.I.Muhamedov, O'zbekiston Milliy universiteti rektori prof. I.U.Madjidov birlgilikda O'zMUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2019-yil 17-iyundagi "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-son, 2023-yil 3-iyuldagagi «Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son Qarorlari, 2024-yil 24-maydagagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-son Farmoyishi hamda O'zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagagi "O'z DSt 3557:2021 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 168-sonli buyruqlariga va oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqga tavsiya etish mumkin.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori, professor

A.Kirgizbayev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, professor

G.Muhamedov

O'zbekiston Milliy universiteti rektori, professor

I. Madjidov



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida
 ishlab chiqilgan 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli
 bakalavrlar tayyorlashning tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
 qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

T A Q R I Z

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasি O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sen Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-soni Qarori hamda O'zR OO'MTVning 2018-yil 6-iyundagi "Oliy ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish to'g'risida"gi №87-02-1322-soni buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasи kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan malaka talablari va o'quv rejasи xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlesh, yuksak kasbiy malaka shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikma hamda malakalarga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va pedagogik amaliyotlarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lif makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, 60530200 – Geografiya ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lif o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Guliston davlat universiteti
Ekologiya va geografiya
kafedrasini mudiri



g.f.n., dots. L.Karshibayeva

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida
ishlab chiqilgan 60530200 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy
ma’lumotli bakalavrular tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy
bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv
rejasiga**

T A Q R I Z

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU da 60530200 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda 2019-yil 17-iyundagi “2019–2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarorlari bilan tasdiqlangan prinsiplarga amal qilingan.

60530200 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan malaka talablari va o‘quv rejasiga xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlesh, yuksak kasbiy malaka shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikma hamda malakalarga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va pedagogik amaliyotlarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta’lim tashkilotlarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60530200 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan malaka talablari va o‘quv rejasini oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har

tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**O'zMU Geografiya va geoaxborot tizimlari
fakulteti dekani**

g.f.d., dots. Sh.M.Sharipov

